

## KUN MAVZUSI: YOSHLAR ORASIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MAS'ULIYATI

**Javlonbek ABDUMALIKOV**

*O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi*

Zamonaviy dunyoda sun'iy intellekt inson hayotining deyarli barcha sohalariga kirib keldi. Ta'lim, tibbiyot, biznes, san'at va hatto kundalik muloqotda ham bu texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Ayniqsa, yoshlar bu jarayonning eng faol ishtirokchilariga aylangan. Ammo texnologiyaning rivojlanishi bilan birga, undan foydalanish mas'uliyati ham ortib bormoqda. Sun'iy intellekt nafaqat imkoniyat, balki ehtiyotkorlik va ongli yondashuvni talab qiladigan vositadir. Bugungi kunda talabalar SI yordamida tezkor ma'lumot olish, matn yozish, tarjima qilish va murakkab masalalarni yechishda foydalanmoqda. Bu esa vaqtni tejash va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Biroq, shu bilan birga, bilimni "tayyor holda olish" odatga aylanib qolsa, bu yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ko'plab olimlar sun'iy intellektni insoniyat tarixidagi eng muhim ixtirolardan biri sifatida baholashadi. Masalan, olim Ray Kursweil aytganidek, "Sun'iy intellekt inson aqlini kengaytiradi, lekin uni almashtirmaydi." Bu fikr yoshlar uchun juda muhim, chunki me'yordan ortiq foydalanish mustaqil fikrlashni ancha pasaytirishi mumkin. Shu bois undan faqat zarur hollarda foydalanish, doimo o'rnini quyida qo'yish loizm.

Mashhur tadqiqotchi Nik Bostrom sun'iy intellekt haqida shunday ogohlantiradi: "Agar sun'iy intellekt noto'g'ri boshqarilsa, u insoniyat uchun xavf tug'dirishi mumkin." Aynan shu fikr nuqtayi nazardan gapiradigan bo'lsak, ilmiy jarayonlarda quyidagi muammolar yaqqol ko'zga tashlanmoqda: akademik halollikning pasayishi; mustaqil fikrlashning susayishi; noto'g'ri axborot tarqalishi va unga ishonish; "sun'iy ong" texnologiyasiga qaramlik.

Bugungi kundagi talabalar hayotiga va ta'lim jarayonlariga uzviy bog'lasak, talabalar topshiriqlarni o'zlari emas, "aqlli tizim" orqali tayyorlashga o'rganib qolmoqda. Bu esa kreativlikni kamaytiradi, mustaqil qaror qabul qilishdan uzoqlashtiradi. Bundan tashqari SI doim ham to'g'ri ma'lumotlar taqdim etmaydi. Hattoki manbaalar eski va norasmiy bo'lgan ma'lumotlarni ham taqdim etgan. Shuning uchun foydalanuvchilardan har bir olingan ma'lumotni chuqur tekshirish va tahlil qilish talab etiladi. Bu orqali insonlarda mediasavodxonlik ko'nikmasi shakllanadi, qaror qabul qilishda tafakkur bilan tanqidiy yondashiladi va eng muhimi sifatsiz kontentlar tarqalishini oldi olinadi.

Bugungi kunda yoshlar oldida turgan asosiy vazifa texnologiyaga qaram bo'lib qolmaslik. Texnologiya inson ongini emas, akasinch, inson uni o'z maqsadlari yo'lida ongli boshqarishdir. Har bir ma'lumotni tekshirish, taqdim etgan javoblarni tahlil qilish, natijaga tanqidiy yondashish zamonaviy raqamli davrning ajralmas talabiga aylanmoqda. Sun'iy intellekt – bu nafaqat texnologik yutuq, balki katta mas'uliyat hamdir. Bu intellektual tizim kelajak eshigini ochib beruvchi kuchli kalitdir. Ammo bu kalitdan qanday foydalanish insonning o'z qo'lida. Yoshlar uni to'g'ri, ongli va axloqiy me'yorlarga asoslangan holda ishlata olsagina, bu texnologiya jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.